

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NARGIZA AXMADJONOVNA

**GENDER LEKSIKASI TARJIMASIDA MUQOBILLIKKA
ERISHISHNING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY
MASALALARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna

Gender leksikasi tarjimasida muqobilikka erishishning leksik-semantik va lingvomadaniy masalalari..... 3

Абдуллаева Наргиза Ахмаджоновна

Лексико-семантические и лингвокультурные проблемы достижения альтернативности при переводе гендерной лексики 27

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna

Lexico-semantic and linguocultural problems of achieving alternativeness in translating gender lexicon 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NARGIZA AXMADJONOVNA

**GENDER LEKSIKASI TARJIMASIDA MUQOBILLIKKA
ERISHISHNING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY
MASALALARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.Phd/Fil 1136 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) rezyume Ilmiy kengash veb-sahifasining www.namdu.uz hamda „Ziyonet“ axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sidiqov Qosim Abilovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Komilova Nilufar Abdilkadimovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi\ PhD.03/31.03.2021. Fil.76.05. raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___» ___ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. tel.: (+99869228 -85-01; faks : (99869) 228-85-02; e-mail: info@namd.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___) raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161 - uy. tel.: (+99869228 -85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.z)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi № ___ raqamli reestr bayonnomasi).

A.I. Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

I.U.Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dosent

O.O. Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va muhimligi. Jahon tilshunosligida antropotsentrizm paradigmasi orqali qaraladigan til hodisalariga borgan sari qiziqish ortib bormoqdaki, bunday yo‘nalishdagi tadqiqotlarda shaxsning individual xususiyatlariga, shu jumladan, gender leksikasini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratiladi. Gender tadqiqotlari turli fanlar – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslikka taalluqlidir. Gender leksikasi nafaqat erkak va ayolni ifodalovchi so‘z-iboralarni, balki jamiyatdagi jinsiy tenglik, gender stereotiplari hamda xalqning madaniy qadriyatlarini ham o‘zida namoyon etadi. Shunday ekan, tildagi genderlik, ya’ni erkak va ayolga oid ijtimoiy va madaniy rollarning ifodalanishi, bu fenomenning tarjimada qayta yaratilishi, gendrologik masalalarning lingvistika, tarjima nazariyasi, madaniyatshunoslik va sotsiologiya sohalari bo‘yicha konseptual ko‘rinishlari atroflicha tadqiqot yondashuvlarini talab qiladi. Bu esa millatlararo muloqot birligi sifatida gender leksik birliklarining tarjima obyekti sifatida o‘rganilishi zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Dunyo tilshunosligida ayni paytda inson jinsi bilan bog‘liq masalalar gender tadqiqotlari deb ataladigan mustaqil fanlararo sohaning diqqat markazida turibdi. Asosiy qurilish materiali so‘zdan iborat bo‘lgan badiiy adabiyot namunalari, ularda ishlatiladigan gender leksikaning sotsiolingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish ham ana shunday masalalardan biridir. Zero, ma’naviy barkamol va yetuk inson tarbiyasida badiiy asarlarning o‘rni beqiyosligi hammaga ma’lum. Bu esa gender leksikasining badiiy asarlar tarjimasida qayta talqin qilinishi, tarjima jarayonida muqobillikka erishish holatlari hamda madaniyatning gendrologik ko‘rinishlarini tarjimada saqlab qolish kabi masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” tamoyili asosida olib borilayotgan keng ko‘lamli jarayonlarda gender munosabatlari ham atroflicha o‘rganilmoqda, shuningdek, dunyo xalqlari o‘rtasidagi gender munosabatlari lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ingliz va o‘zbek tillarida yozilgan badiiy asarlar tarjimasida gender leksik birliklarini qayta yaratishda muallif g‘oyasi, shakl, mazmun hamda madaniyat belgilarini talqin qilish borasida yetarlicha izlanishlar olib borilmagan. Ingliz yozuvchilari asarlarini o‘zbek tiliga qilingan tarjimalarida gender aspektining qiyosiy tahlillarini amalga oshirish zaruriyati mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son qonuni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda

ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni va mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikning zamonaviy sohalaridan biri gendrologiyaga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Gender tadqiqotlarini tarjimashunoslik aspektida o'rganilishi shular jumlasidandir. Bu esa o'z o'rnida gendrologik tadqiqotlar rivojini talab qiladi. Jumladan R.Stoller, G. John, I. Kostikova, T. Krijnen, S. Bauvel, G. Lakoff, M. Johnsen, D.Tannen, O. Jespersen, R. Lakoff, V.Teliya D.Kameron, M.Fuko hamda N.Timko¹ kabi olimlar genderning til birligi sifatida namoyon bo'lishiga doir bir qator izlanishlar olib borganlar. Shuningdek, dunyo tadqiqot maydonida gender leksik birliklari faollashuvi hamda ularni tarjimada qayta yaratish masalalarida L. Barxudarov, K. Chukovskiy, V. Kommisarov, I. Zikova, T. Atayeva, A. Vandisheva, I. Denisova, Yu. Kulikova, E. Xabibulina, S. Voskresenskaya, N. Yeskova, E. Maskevich, O. Kotik hamda L. Kozlovalar²ning tadqiqot natijalarini e'tirof etish lozim.

¹ Stoller R.Y. Presentations of Gender. New Heaven, 1985. P.45. John Gray. Men are from Mars, Women are from Venus: A Practical Guide for Improving Communication and Getting What You Want in Your Relationships. - Harper Paperbacks, April 3, 2012. -P.368. Kostikova I Vvedeniye v genderniye issledovaniya, Seriya "Klassicheskiy universitetskiy uchebnyk", M.: Aspekt Press, 2005. B8-10. Krijnen, Tonny and Bauwel, Sofie. Gender And Media: Representing, Producing, Consuming. New York: 2004.-P.234-238. Lakoff. G. Johnsen. M. Metaphors we live by. -London: The university of Chicago press, 2003.-P. 275. Tannen.D. You Just Don't Understand.- USA: First Ballantine Books Edition,1991.-P.150. Jespersen.O. *Language: Its Nature, Development and Origin.*- London : G. Allen & Unwin ltd, 1922.-P.456. Lakoff. R. Language and woman's place. -New York : Harper & Row, 1975.-P. 80. Телия. В.Н. Русская фразеология. - М.: 1982.- С.20-25. Тимко. Н.В. Фактор "культура" в переводе,- Курск. гос. ун-т. – 2-е изд., 2007. – С.154.

² Бархударов Л.С. Язык и перевод. – Москва, 1975.-С.275; Чуковский. К. И. Искусство перевода.- Москва-Ленинград: Асадемия,1936.-С.96; Комиссаров. В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). - М.: Высш. шк., 1990. – С. 253; Зыкова. И.В. Гендерный компонент в структуре и семантике фразеологических единиц современного английского языка: кан. фил. наук.....автореф.- . - М., 2002.-С.10-13, Атаева. Т.Х. Гендерно ориентированная лексика в таджикском и английском языках: кан. фил. наук.....автореф.- . Душанбе, 2022.-С.17-18; Вандышева. А.В. Гендерно ориентированная лексика в языковой картине мира (на материале английского, русского и немецкого языков): кан. фил. наук.....автореф.- Ростов-на-Дону, 2007.- С.23; Денисова. И.В. Особенности передачи гендерного аспекта в переводе художественного произведения: кан. фил. наук.....автореф.- . Челябинск, 2011.-С.5; Куликова. Ю. С. Влияние личности переводчика на перевод художественных произведений: гендерный аспект: кан. фил. наук.....автореф.- . Челябинск, 2011.- С.19; Хабибуллина. Э. Языковые трансформации при переводе татарской литературы на турецкий язык: кан. фил. наук.....автореф.-. Казань, 2016.-С.19; Воскресенская.С. Гендерные стереотипы лексико-грамматической персонификации: кан. фил. наук.....автореф.-. Тверь, 2007.-С.15; Котик. О. Особенности проявления гендерного аспекта в текстах печатной рекламы в английском и русском языках: кан. фил. наук.....автореф.- Краснодар, 2008.-С.25; Еськова Н.Н. Лексикографические аспекты гендерно-маркированных идиоматическихвыражений английского и русского языков// Дагестанский государственный педагогический университет: 2012; Мацкевич.Е. Флакман.А. проблема гендерного-корректного перевода профессионально-ориентированных текстов// Baltic Humanitarian Journal. 2022. Т. 11. № 3; Козлова Л.Н.

Mamlakatimizda asosan gender masalalariga qiziqish o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lsada, hozirga qadar gender lingvistikasi borasida salmoqli izlanishlar amalga oshirilgan. A.Kononov, E. Begmatov, L.Reshetova, M. Rasulova, H.Dadaboyev, E.Fayzullayeva, Q.Umurov, R.Fayzullayeva, Z.Yunusova, M.Cho'tpo'latovlar³ o'z tadqiqot natijalari bilan soha rivojiga samarali hissa qo'shdilar. Yuqoridagi tilshunos olimlarning so'nggi yillardagi ilmiy ishlari o'zbek gender lingvistikasini yangi bosqichga olib chiqdi. Gender aspektini tillararo lingvistik hamda madaniyat belgisi sifatida qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganilishida G.Ergasheva, M.To'xtasinov, N.Nasrullayeva, U.Yigitaliyev, F.Musayeva, Sh.Ulug'ova, R.Shirinova, S.Usmonova, Sh.Gulyamova, N.Komilovalar⁴ ning tadqiqotlari ahamiyatli bo'lsa-da, badiiy adabiyotda qo'llanilgan gender leksik birliklarini leksik-semantik va lingvomadaniy jihatdan muqobillikka erishish masalalari monografik planda tadqiqotga tortilmagan. Aynan shu nuqtai nazardan, ingliz badiiy asarlar tarjimasida gender leksik birliklarini o'ziga xos jihatlarini qiyosiy aspektda yoritib berish shu sohadagi izlanishlarga zamin yaratadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Namangan davlat universitetining "O'zbek adabiyotining xorijda o'rganilishi va tarjimashunoslik masalalari" mavzusidagi umumiy ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning leksik-semantik va lingvomadaniy masalalarini qiyosiy tadqiq etishdan iborat.

Царева Г.В. Лексикографический аспект перевода гендерной лексики с русского языка на английский// Ученые записки Орловского государственного университета. №2 (79), 2018.-С.109-112.

³ Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. – Ташкент.: Гос издат, 1948. с.31-32; Бегматов Э.А. Исmlарда жинс тушунчасининг ифодаланishi // Ўзбек исmlари имлоси (русчада ёзиш масалалари). – Тошкент.: Фан, 1972. б.363-379; Решетова Л, Умуров Қ. Род ва жинс категориясининг лексик-грамматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975. – №6. – б.31-35; Расуллова М. Жинс тушунчасининг турли тилларда ифодаланishiга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – №3. – Б. 66–69; Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий”даги аёл семали лексемалар хусусида//Филология фани: янги аср муаммолари. –Тошкент, 2003. – Б. 125-128; Файзуллаева Э.М. Этапы развития гендерных исследований в лингвистике// Гендерные исследования в отечественной лингвистике. – Тошкент, 2004. – С. 25-29; Файзуллаева Р. К проблеме передачи национально колорита в художественном переводе: Дисс. ...канд.филол. наук. -Ташкент,1972. С-93; Chutpulatov. M.CH. Gendernaya lingvistika: Uzbekskaaya mujskaya rech// Vestnik: Toshkent, 2016- B.53

⁴ Ergasheva G.I. Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fan. fals. d-ri ... diss. -Toshkent, 2011. –B.165; To'xtasinov. M. Badiiy matnlarda sleng so'zlarning lingvomadaniy va gender xususiyatlari ingliz va o'zbek til materiallari asosida: fil. fan. bo'y. dok (PhD) diss. -Toshkent, 2011; Ergasheva G. I. Turli tillar tizimida gender terminologiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar: fil. fan. bo'y. dok (DSc) diss. Toshkent 2018; Nasrullayeva N. Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologok manzarasida gender konseptlarining shakllanishi: fil. fan. bo'y. dok (DSc) diss. avtoref...-Toshkent, 2018.-B.70; Yigitaliyev U.S. O'zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog'liq assosiativ-verbal birliklar: Filol. fan. fals. d-ri ... diss. – Toshkent, 2020; Musayeva F.T. O'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi: Filol. fan. fals. d-ri ... diss. – Toshkent, 2019; Ulug'ova. Sh. Feministik badiiy matnda metafora faollashuvining kognitiv-stilistik jihatlari ("Jejn Eyr" romani asosida): fil. fan. bo'y. dok (PhD) diss. avtoref...-Samarqand, 2021.-B.58; Shirinova.R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: fil. fan. bo'y. dok (DSc) diss. avtoref...- Toshkent, 2017.-B.58; Usmonova S. O'zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyati tasviri : fil.fan. bo'y.fals. dok(PhD) diss. avtoreferati..Farg'ona,2021.-B.54; Gulyamova Sh. K. O'zbek tili evfimizmlarining gender xususiyatlari: fil. fan. dok... diss. - Buhoro, 2022.-B.162; Komilova. N.A. Gender konseptual semantikasi verbaizorlari va ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tadqiqi (hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillari materialida): fil. fan. bo'y. dok (PhD) diss. avtoref...- Farg'ona, 2024.-B.53

Tadqiqotning vazifalari:

gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning asosiy mezonlarini ishlab chiqish;

ingliz va o'zbek tillarining leksik-semantik sathida gender muvofiqliklarini o'rganish;

ingliz va o'zbek tillarida farqli semantik maydonga ega gender leksikasini tarjima qilishning o'ziga xosliklarini tadqiq qilish;

ingliz va o'zbek tillaridagi gender leksikasining lingvomadaniy komponentini tarjimada yetkazib berish muammolarini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida Margaret Mitchelning "Gone with the Wind" (tarjimon R.Axtamova), Sharlotta Brontening "Jane Eyre" (tarjimon F.Tilovatov) hamda Teodor Drayzerning "Sister Carrie" (tarjimon E.Nosirov hamda M.Volosov) romanlaridagi gender leksik birliklari asliyat va tarjimasini tanlab olindi.

Tadqiqot predmetini gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning leksik-semantik va lingvomadaniy masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usuli. Dissertatsiyada tavsiflash, qiyosiy-chog'ishtirma, qiyosiy-uslubiy, statistik, krossmadaniy, tarixiy-qiyosiy, komponent va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilidan o'zbek tiliga qilingan badiiy tarjimalarda muallifning g'oyasi, uslubi hamda asliyatdagi madaniy komponentlarni qayta yaratish jarayonida gender leksikasining muqobilligini ta'minlash uchun shakl va mazmun, uslubiy, transformatsion, lingvomadaniy, kontekstual, reseptiv va produktiv, bevosita va bilvosita, terminologik va qiyosiy mezonlari ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillarining leksik-semantik sathida gender muvofiqliklar badiiy matnlarda qo'llanilgan onomastik va antonomastik gender birliklari, kasbiy genderemalar, oila a'zolari hamda qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi gender leksikasi, erkak va ayol jinsiga xos morfologik qatlamda namoyon bo'lishi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi gender leksik birliklarning millat urf-odatlari, madaniyati va diniy qarashlarini aks ettiruvchi milliy-madaniy, voqealar rivojini ta'minlovchi iqtisodiy-siyosiy, diaxronik va sinxronik shakllarga ega davriy hamda qahramonlarning turmush tarzini belgilovchi ijtimoiy kabi farqli semantik maydonni vujudga keltiruvchi omillari aniqlangan;

badiiy asarlar tarjimasida madaniyat belgilarining gendrologik xususiyatlarini qayta yaratishda muqobillikka erishish uchun transliteratsiya, modulyatsiya, kompensatsiya, kalkalash, generalizatsiya va izohlash kabi tarjima transformatsiyasi usullaridan foydalanilishning samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gender komponentli leksikaning tarjima obyekti sifatida o'rganilishi hamda ularni badiiy asar tarjimasida muqobillikka erishishning asosiy mezonlari haqida tahliliy fikrlar keltirilgan;

ingliz va o'zbek tillarining gender muvofiqliklari ko'rinishlari leksik-semantik sathda tahlilga tortilgan;

ikki tilda farqli semantik maydonga ega gender leksikasini tarjima qilishning o‘ziga xosliklari ochib berilgan va muqobilsiz gender leksik birliklarini badiiy asar tarjimalaridagi tasnifi ko‘rsatilgan;

gender leksikasi lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyekti sifatida tadqiq etilgan va gendrologik lingvomadaniy belgilarni tarjimada yetkazib berish muammosi tadqiqot ishi doirasida yoritilgan;

gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning leksik-semantik va lingvomadaniy masalalari bir necha ilova va jadvallar orqali ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan yondashuvlar va usullar, ma’lumotlar badiiy va ilmiy manbalar asosida berilganligi, tavsiflash, tipologik-qiyosiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, qiyosiy-uslubiy, statistik, krossmadaniy, tarixiy-qiyosiy va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanilganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tadbiiq qilinishi, natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ushbu tadqiqot ishi mamlakatimizdagi tilshunoslik va tarjimashunoslikda gender aspektining tadqiqiga oid fundamental ilmiy ishlarda, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun shu sohadagi darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda va ularni tegishli manbalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqotning nazariy asoslari va xulosalari, tahlillari ingliz badiiy asarlari namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda leksik-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarga ilmiy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ularni tarjima amaliyotida qo‘llash jarayonida, tadqiqot natijalari va xulosalari esa tarjima turlari va amaliyotiga oid bo‘lgan darsliklar, tarjima nazariyasi bo‘yicha maxsus kurs, gender sohasiga oid lug‘atlar va qo‘llanmalar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning leksik-semantik va lingvomadaniy masalalarini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Ingliz va o‘zbek tillarining leksik-semantik sathida gender muvofiqliklari sifatida onomastik hamda antonomastik gender birliklari, kasbiy genderemalar, oila a‘zolari va qarindoshchilik munosabatlarini bildiruvchi gender leksikasi, erkak va ayol jinsi uchun xizmat qiluvchi morfologik qatlamning voqelanishini dalillash borasidagi ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” bo‘yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zR Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-martdagi 01/4-973son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida ishlab chiqilgan elektron platforma mazmunining boyitilishiga erishilgan.

Badiiy asarlarda qo‘llanuvchi gender komponentli leksik birliklar tarjimasida farqli semantik maydonni vujudga keltiruvchi lingvistik, milliy-madaniy, davriy, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy omillar hamda insonlarni o‘rab turgan muhit va sharoitga ko‘ra, ijtimoiy turmush tarzini ko‘rsatuvchi gender leksikasi, jumladan insonlarning tana a‘zolari, uy-ro‘zg‘or buyumlari va mehnat qurollari, kiyim-kechak va pardoz andoz buyumlari (bezaklar) nomlari, oziq-ovqat atamalari o‘z lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra badiiy asarlar tarjimasida ingliz va o‘zbek tillarida to‘liq

muqobillikka ega ekanligi borasida fikrlar bayon qilingan “Ijtimoiylikni ifodalovchi gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishish masalalari” (51-61-betlar) nomli maqola O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-yil 1-iyundan 2025-yil 31-maygacha bajarilishi mo‘ljallangan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida nashr qilinadigan “KOMPARATIVISTIKA” (Comparative Studies) ilmiy elektron jurnalining 4-sonida nashr qilindi va ilmiy ish natijalari loyiha doirasida amaliyotga joriy etildi (O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 7-martdagi 01-04-1/1137son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasidagi ilmiy elektron jurnal mazmunining boyitilishiga erishilgan.

Tarjima ikki til o‘rtasidagi muloqot birligi sifatida xalqlarning o‘zaro do‘stona munosabat o‘rnatishlari, bir-birlarining madaniy boyliklarini o‘rganishlari va o‘zlashtirishlarida vositachi ekanligi, badiiy asarlar tarjimasida madaniyat belgilarining gendrologik xususiyatlarini qayta yaratishda transliteratsiya, modulyatsiya, kompensatsiya, kalkalash, generalizatsiya va izohlashlar kabi transformatsiya usullaridan foydalanilishning ahamiyati borasidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Adabiy jarayon”, “Ta’lim va taraqqiyot” nomli dasturlar ssenariysining 2024-yil fevral va dekabr oylari sonlarida unumli foydalanilgan, hamda tadqiqotchi bilan dunyo tarjimashunosligida so‘nggi yillarda lingvomadaniy yondashuvlar, jumladan, lingvokulturemalar, realiyalar, lakunalar, maqol, matal hamda idiomalar tarjimasida muqobillikka erishish masalalari qiyosiy asnodagi tadqiqotlar va ularning umumiy, xususiy jihatlarini aniqlash, olam milliy manzarasi va unda gender leksik birliklari faollashuvini tarjimada qayta yaratish masalalari, ingliz badiiy asarlarini o‘zbek tiliga qilingan tarjimalarida gender leksikasining lingvistik hamda ekstralingvistik jihatdan voqelanishida jamiyatdagi gender tengligi, ikki jins vakillarining o‘zaro munosabatlari, oiladagi erkak va ayol muloqotida murojaat leksemalari, qarama-qarshi jins vakillarining diniy qarashlari kabi masalalar borasida bevosita suhbat olib borilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 26-fevraldagi 05-09-225 son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu dasturlarning yanada qiziqarli va dolzarbligiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 8 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi. Dissertatsiya kirish, asosiy 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, ularning umumiy xajmi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, muammoning o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Gender leksikasini tarjima aspektida o'rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Birinchi bobning birinchi faslida esa **“Gender komponentli leksika tilshunoslik va tarjimashunoslik obykti sifatida”** xususida so'z boradi. Davrlar osha gender mavzusi doimiy ravishda muhokamalar, va munozaralarga sabab bo'lib kelgan. 1968-yili Kaliforniya universiteti professori, psixoanalitik Robert Stoller ilmiy qarashlarida ilk marotaba gender konseptini ikki tomonlama, ya'ni biologik va sotsiologik jihatdan o'rganib chiqqan⁵. Ko'p hollarda “gender” tushunchasi “jins” tushunchasining sinonimi sifatida noto'g'ri talqin qilinadi. Aslida, jins va gender tushunchalari o'rtasidagi farqlar biologik bo'lmagan sabablarga ham ega bo'lib u asosan ayol va erkak o'rtasidagi aqliy, madaniy va ijtimoiy farqlarda gender tushunchasi orqali namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda jins tushunchasi faqat jismoniy farqlarda ko'rinadi⁶. Gender so'zi lotincha “genus” – “mehribon”, inglizcha “gender” – “zot”, ma'nolarini anglatib, feministik nazariya va gendershunoslikning rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. Bu esa o'z navbatida gender tadqiqotlari va shu sohada masalalarni keng yoritish imkoniyatini beradi. Gender tadqiqotlari asosan feministik harakatlar ta'sirida adabiyot, san'at, tilshunoslik, tarix, geografiya, siyosatshunoslik, psixologiya, huquqshunoslik, tibbiyot kabi fanlararo sohalarda genderlik masalalari va jinslararo aloqani o'rganadi. Shuningdek, u irqchilik, etnik bo'linish, millat va elatlarning farqlanishlaridagi jins va gender masalalarini ham o'rganish obykti sifatida qaraydi⁷. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, gender tushunchasi asosan ijtimoiy fanlar negizida shakllangan va bu o'z o'rnida tilshunoslik bilan uzviy bog'liqlikni taqozo etadi, chunki til ijtimoiy hodisa ekanligi ma'lum. Gender tushunchasi o'z navbatida genderga oid so'zlar, gender leksikasi, genderga xos bo'lgan tushuncha va atamalar, gender leksikologiyasi hamda gender komponentli leksika kabi bir qator sohaga oid bilimlarning shakllanishini talab etadi.

M.Cho'tpo'latovning fikricha gender leksikasi bu nafaqat genderni ifodalovchi so'z va atamalardan tashkil topadi, balki erkaklar va ayollar tomonidan ishlatilayotgan leksikaning o'ziga xos tarzda berilishiga ham bog'liq. Ayollar o'z nutqlarida ichki his tuyg'ularini, bayon etilayotgan kontekstga nisbatan o'zlarining qarashlarini ko'proq namoyish qiladilar. Erkaklar esa bu o'rinda neytrallikni afzal

⁵ Stoller R.Y. Presentations of Gender. New Heaven, 1985. – P.45

⁶ Костикова.И.В и др.. Введение в гендерные исследования, Серия “Классический университетский учебник”, – М.:Аспект Пресс, 2005. – С.8-10.

⁷ Krijnen, Tonny; van Bauwel, Sofie. Gender And Media: Representing, Producing, Consuming. – New York, 2004. – P.234-238

ko‘rishadi natijada, ayni bir mavzudagi suhbat ikki jins vakillarida turli xil leksikadan foydalanish orqali o‘z aksini topadi⁸.

Gender lingvistikasining o‘rganish obyekti va tadqiqot predmeti bu turli tillarda va madaniyatda genderni ifodalovchi til materiallari bo‘lib, ular insonlarning muloqot jarayonidagi nutqiy faoliyatida yoki badiiy asarlarning ifoda tilida yoxud badiiy asar tarjimasida namoyon bo‘ladi. Tarjima – muloqotning eng ta’sirchan va uzoq yashovchan shakllaridan biri, u nafaqat bir insonning o‘zga bir inson bilan, balki butun boshli bir millatning boshqa bir millat bilan diydor ko‘rishuvidir⁹.

Rus tarjimoni K.Chukovskiy o‘zining “Искусство перевода” nomli asarining “Matniy aniqlik” bobiga epigraf sifatida ushbu rus o‘xshatishini keltiradi. “Перевод – что женщина: если она красива, она не верна; если верна – некрасива.”¹⁰ (Tarjima bu ayol kishiga o‘xshaydi, agar u vafoli bo‘lsa, chiroyli emas; chiroyli bo‘lsa, vafoli emas”). Muallif bu o‘rinda genderga xos leksikani o‘z ichiga olgan o‘xshatishdan foydalangan va tagma’noli pragmatik usulda tarjimaga ta’rif berib o‘tgan.

“Tarjimon hammavaqt so‘z bilan ish yuritadi” – deb ta’kidlaydi I.G‘ofurov o‘zining “Tarjima nazariyasi” risolasida. Shuningdek, tarjima jarayoni mutarjimdan ikki til muhitida va so‘zlar dunyosida bemalol suzib, original asarning mazmuni va mundarijasiga ko‘ra qo‘llangan so‘zlar, jumlar, gaplarning ma’nolarini chiqarib berishni talab qilishi borasida ham fikrlar bayon qiladi¹¹. Muallif bu o‘rinda haq, chunki so‘zni tarjimani boshqaruvchi asosiy richag sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq, tarjimon jumla va gaplarni tashkil qiluvchi so‘zlarni kontekstga bog‘liq holda to‘g‘ri muqobilini tanlay olmasa, o‘zaro bog‘liqlikni saqlab, ma’nolar uyg‘unligini (so‘z ma’nosini jumla asosida, jumla ma’nosini gapga qarab, gapning ma’nosini esa u o‘rin egallagan to‘liq tugal ma’no beruvchi parcha asosida) tashkil qilmasa, original asardan chetlashib, butunlay boshqa oqim bo‘ylab ketib qolishi ham xavfdan xoli emas. Shu o‘rinda, gender leksikasi tarjimasida to‘g‘ri tanlov qilish borasidagi I.G‘ofurov fikrlariga e’tibor qaratamiz. Muallif Gi de Mopassanning “Bel-Ami” nomli bestseller romanini tarjima qilish jarayonida, ilk qiyinchilik sifatida asarning nomiga mos muqobil so‘zni tanlay olmaganligini aytadi va uzoq o‘ylashlar natijasida “jonim”, “jonginam”, “do‘ndiqcham”, “shakarim”, “jononam”, “tasadduq” kabi bir qator genderga xos so‘zlar orasidan “azizim” so‘zi ustun chiqib, shu nomga to‘xtalganligini ta’kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, tarjimada so‘z qanchalik mos tushsa, u shunchalik ta’sirli bo‘ladi va xalq tili bilan aytganda, “o‘qishli” asarga ayplanadi.

T.Atayeva o‘z tadqiqotida gender leksikasini tarjima omili sifatida ko‘rsatib, uni alohida individuallik paradigmasida namoyon bo‘lishini aytib o‘tadi¹². Bu shuni ko‘rsatadiki, antropotsentrik nuqtai nazardan har bir inson o‘z til shaxsiyatiga ega va gender leksikasini qayta yaratishda bu holat tarjimada mutarjim tomonidan ma’lum bir usulda namoyon etiladi. Tadqiqotchi izlanishlarining

⁸ Чутпулатов.М. Гендерная лингвистика: Узбекская мужская речь// Вестник: Тошкент, 2016. – С.53

⁹ Hamdardov.U Qosimov. A. Jaxon adabiyoti. (O‘quv qo‘llanma). –T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – B.335

¹⁰ Чуковский.К.И. Искусство перевода. – Москва-Ленинград: Асадемия,1936. – С.96

¹¹ G‘ofurov.I. Mo‘minov.O.Qambarov.N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. – B.122

¹² Атаева.Т.Х. Гендерно ориентированная лексика в таджикском и английском языках: кан. фил. наук.....автореф. – . Душанбе, 2022. – С.17-18

obyekti sifatida dunyoni genderga xos tarzda ifoda etuvchi til kartinalaridan iborat gender stereotiplari, gender komponentli leksika, genderlik neytral holatda bo‘lgan leksik birliklar, gender metaforik birliklar kabi yetakchi funksional birliklarni o‘rganib chiqadi va tarjimon shaxsi tomonidan idrok qilish orqali qay darajada to‘g‘ri talqin qilinishini misollar bilan tahlilga tortadi.

I.V.Denisova esa badiiy asarlar tarjimasida gender aspektlarini yetkaza bilish haqidagi fikrlarida, badiiy adabiyotda gender komponentlilik asarning badiiy tasvirini boyitishda va kitobxon tomonidan asarni to‘laqonli idrok etishda asar xarakteriga ta’sir qilib, uning bir qismini tashkil qilishi mumkinligini aytib o‘tadi¹³. Bundan tashqari tadqiqotchi genderlikni ifodalash jihatidan tarjimada badiiy obraz va uni qayta yaratish vositasi sifatida genderga asoslangan birliklardan foydalanish orqali kitobxonga tasviriylikni to‘liq ochib berish masalasiga alohida yondashadi. Ma’lumki, tasviriy ifodalarni keng va o‘rinli qo‘llagan mualliflar asarlari ko‘pincha o‘quvchi qalbidan tezroq joy egallaydi. Gender leksikasida esa, deylik, asarlardagi ayollar obrazlari yoki bosh qahramon erkak kishining tashqi qiyofasi kabi tasviriy holatlarda, ular keng ko‘lamda ishlatiladi. Masalan, mashhur amerikalik adib Ernest Hemingveynning “The old man and The Sea” asaridagi bosh qahramon tasvirini ko‘rib chiqaylik. *“The old man was thin and gaunt with deep wrinkles in the back of his neck. The brown blotches of the benevolent skin cancer the sun brings from its reflection on the tropic sea were on his cheeks. The blotches ran well down the sides of his face and his hands had the deep-creased scars from handling heavy fish on the cords. But none of these scars were fresh. They were as old as erosions in a fishless desert”*¹⁴. Muallif qari inson qiyofasini berish uchun bir qator gender komponentlilikka ega bo‘lmagan *“wrinkle, skin, back of is neck deep-creased scars”* kabi so‘zlardan o‘rinli foydalanish bilan tasviriylikka erisha olgan. Xuddi shu qissani Ibrohim G‘ofurov tomonidan “Chol va Dengiz” nomi ostida qilingan tarjimasida ushbu parcha quyidagicha berilgan. *“Chol oriqlik va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o‘tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzudan aks etib chiqishidan paydo bo‘ladigan beozor teri rakining jigar rang dog‘lari bilan qoplangan edi. Dog‘lar cho‘zilib gardanigacha tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda, chizimchalar o‘yib yuborgan qo‘llarida chuqur chandiq izlari ko‘rinardi. Ammo bu izlar ichida yangisi yo‘q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari qo‘hna edi.”*¹⁵ Tarjimada mutarjimning gender leksikasiga birinchi murojaati o‘laroq asar nomidagi *“Old man”* so‘zini muqobili sifatida *“Chol”* leksemasini tanlaganligini ko‘ramiz. Keyingi o‘rinlarda esa, parchadagi har bir qator uchraydigan yondosh semantik ma’noga ega so‘zlar, jumladan, insondagi nuqsonlardan biri bo‘lgan *“dog‘, chandiq, qo‘hna”* so‘zlari, og‘ir kasallik nomi bilan berilgan *“teri raki”* yoki so‘nib borayotgan hayotni timsoli sifatidagi *“jigar rang, ajin”* kabi leksemalar, muallif fikrlarini tarjimada kitobxonga to‘liq yetkazish bilan barobardir.

Ko‘rinib turibdiki, gender komponentli leksik birliklar ham, genderlikni ifoda etuvchi funksional so‘z va iboralar ham badiiy asarning mukammal tarjimasini yaratishda, asl nusxaning umrboqiyiligini ta’minlashda, bir tilda yozilgan asarni

¹³ Денисова.И.В. Особенности передачи тендерного аспекта в переводе художественного произведения: кан. фил. наук.....автореф. – Челябинск, 2011. – С.5

¹⁴ https://vnis.edu.vn/wp-content/uploads/2021/04/the_old_man_and_the_sea_-_ernest_hemingway

¹⁵ Хемингуей. Э. Чол ва денгиз /кисса/. Ғофуров. И. Таржима. Тошкент. “Ёш гвардия”,1986. – В.1

butunlay boshqa tildagi kitobxonga asliyatdek yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu jarayonda tarjima obyektini sifatida “so‘z o‘z so‘zini aytishi” bilan lingvistikada alohida o‘rin egallaydi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “**Gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning asosiy mezonlari**” deb nomlanadi va ushbu faslda gender leksikasi tarjimasida muvofiqlikni ta‘minlovchi mezonlar masalasi tahlilga tortilgan. Tarjima jarayonida gender leksik birliklarining muqobil hamda ekvivalent shakllariga erishish ahamiyatlidir. Z.Sadiqovning fikricha, tarjimada muqobillik va ekvivalentlik terminlari ma‘nodosh so‘zlar sifatida qo‘llansa-da, bu ikki tushunchani farqlash lozim¹⁶. *Muqobillik* muayyan kontekst ichidagina o‘zaro mos kelishni anglatadi, *ekvivalentlik* ma‘lum bir kontekstdan tashqarida ham o‘zaro mutanosiblikni bildiradi. Shuningdek, tarjimashunoslikka oid adabiyotlarda *timsol ekvivalentlik*, *soxta ekvivalentlik*, *tarjimada adekvatlik*, kabi iboralarni ham kuzatish mumkin. Shuningdek, tarjimonning soxta do‘stlari nomini olgan bir qator leksik birliklar mavjud bo‘lib, ular turli tillarda ichki shakli bo‘yicha mos, ammo ma‘no jihatdan tubdan farq qiluvchi so‘zlardir¹⁷.

E.Ochilov tarjima turlari bilan birgalikda adekvat tarjimaga quyidagicha ta‘rif bergan. Har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga shakl va mazmun jihatdan muvofiq tarjima bu adekvat tarjimadir¹⁸. Darhaqiqat, adekvat hamda ekvivalent tarjima tushunchalari o‘zining ma‘no va mazmun, uslub hamda qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Adekvat tarjimada matn mazmunini, uslubini va kontekstni to‘liq ochib berish ustunlik qilsa, ekvivalent tarjimada leksik, grammatik hamda semantik jihatdan mos muqobillikka erishish maqsad qilib olinadi. Shuningdek, ekvivalentlik tushunchasi ko‘pincha asliyat va tarjima matnlarining semantik birligi sifatida ta‘riflanadi, ya‘ni u natijaga qaratilgan, adekvatlik esa jarayon hisoblanib, tarjima yechimining sifatini belgilaydi.

Tarjimadagi muqobillik orqali asliyat va tarjima o‘rtasidagi mutanosiblikka erishiladi. Tarjimada muqobillikka erishish uchun mutarjim muqobil leksikaga murojaat qilishi lozim, biroq hamma vaqt ham mos so‘zlar tarjimasini topish oson ish emas, chunki har bir tilning o‘z ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muqobilsiz leksikaga aloqador so‘zlar ham lingvistikada uchrab turadi. Muqobilsiz leksik birliklar sirasiga boshqa tilda semantik muqobili bo‘lmagan apelyativ leksika, frazeologik, paremiologik va onomastik birliklar, ya‘ni oddiy so‘zlar, iboralar, maqol, matal va atoqli otlar hamda qisqartma so‘zlar kiradi. Shu o‘rinda, badiiy asar tarjimasida genderlikni muqobil shaklda berish masalalari qatoriga tarjimonning qaysi jins vakili ekanligini tarjimaga ta‘siri borasidagi fikrlarni ham kiritib o‘tish lozim. Y.S.Kulikova badiiy asarni bir tildan boshqa bir tilga o‘girishda, genderni xos so‘zlarni tanlashda, tarjimon shaxsining qay darajada ta‘sir qilishi, erkaklar va ayollarning badiiylikni ifodalash usullaridagi farqlarni ko‘rsatib o‘tadi¹⁹. Tadqiqotchi shuningdek, ikki jins vakillarining morfologik, sintaktik hamda leksik qatlamlarida tafovutlar mavjud bo‘lganligi sababli, tarjima jarayonida bir qator kamchiliklar yoki, aksincha, yutuqlarga olib kelishi, muallif va

¹⁶ Sadiqov.Z. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: /Darslik/ Toshkent: Bookmany print, 2023. – B.28

¹⁷ Salomov.G‘. Tarjima tashvishlari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983. – B.25

¹⁸ Ochilov.E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – T.,2012. – B.40

¹⁹ Куликова.Ю.С. Влияние личности переводчика на перевод художественных произведений: тендерный аспект: кан. фил. наук.....авторф. – . Челябинск, 2011. – С.4-5

tarjimonning bir jins vakili sifatida gender leksikasi tarjimasida ekvivalentlik tanlovidagi qarashlar uyg'unligi kabi masalalarga atroflicha to'xtalib o'tgan. Aynan shu soha bo'yicha izlanishlar olib borgan olimlar E.Matskevich va A.Flaksmanlar o'z tadqiqotlarida jins orqali ifodalanuvchi genderlik jihatidan bir tildan boshqasiga to'g'ri tarjima qilishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni quyidagi omillarga ko'ra tahlil qilib chiqdilar²⁰. Jumladan, aniq bir jinsga qaratilmagan, ya'ni umumiylik holatlarida paydo bo'luvchi murakkabliklar yoki, aksincha, matnda qaysi jins vakili haqida ma'lumot berilayotganligi aniq bo'lganda kelib chiqadigan qiyinchiliklarni misollar yordamida ko'rsatib o'tdilar.

Nazariy asoslarni o'rganishlarimiz natijasida gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning asosiy mezonlariga tegishli manbalarga duch kelmadik va o'zlashtirgan bilimlarimizga tayangan holda, badiiy asarlar tarjimasida genderga xos leksik birliklarni mos muqobil shaklida berish uchun quyidagi mezonlar bo'yicha turkumlashni taklif etdik. Ushbu mezonlarni asosan, tarjimaning obyektiv va subyektiv omillari bo'yicha tasniflashga harakat qildik. Mutarjim tarjima jarayonining subyektiv sifatida oldingi o'rinda turadi va gender leksikasi tarjimasida mas'uliyatni zimmasiga olib, quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim.

1. Shakl va mazmun muqobilligi
2. Uslubiy muqobillik
3. Transformatsion muqobillik
4. Lingvomadaniy muqobillik
5. Kontekstual muqobillik
6. Reseptiv va produktiv muqobillik
7. Bevosita va bilvosita muqobillik
8. Terminologik muqobillik
9. Qiyosiy muqobillik

Yuqoridagi mezonlar gender leksik birliklari tarjimasida muqobillikni ta'minlashi misollar bilan ko'rsatib o'tildi. Masalan, Teodor Drayzer qalamiga mansub "*Sister Carrie*" romanini o'zbek tiliga "*Baxtiqaro Kerri*" nomi bilan tarjima qilinishida aslyat nomida qo'llanilgan gender komponentli "*sister*" leksemasi tarjimada o'zining genderlik xususiyatini yo'qotgan, lekin aslyatdagi mazmuni qamrab olgan holda "*baxtiqaro*" so'zi bilan transformatsiyaning almashtirish usuli yordamida o'girilgan.

Gender leksikasi tarjimasida mukammal reseptorlik, jumladan, erkak va ayol o'rtasidagi munosabat, ularning o'zaro muloqot leksemalari, gender birliklarining lengvokognitiv xususiyatlari, gender leksikasining verbal va noverbal ifodasi kabi bir qator bilimlar tarjimondan talab etiladi. Masalan: "*Kerri erkaklar bilan qizlarning ana shunday beadab valaqlashlarini eshitib o'tirarkan hurpayibroq oldi. U bunday gaplarni eshitib yurmaganidan ular zamirida qandaydir berahmlik va qopollik yashiringanligini sezar, hozirgi damda tag'in bitta-yarimta menga shunday gap qilib qolmasin deb yuragi po'killab turardi.*"²¹ Mana shu parchani ingliz tilidan tarjima qilish uchun tarjimondan 1890-yillarda Chikagoning ishchilar sinfi vakillarining madaniy saviyasi, erkaklarning ayollar bilan suhbatlashish muomala odobi, 18 soatlab tik oyoqda ishlashdek og'ir mehnat bilan

²⁰ Мацкевич.Е. Флакман.А. Проблема гендерного-корректного перевода профессионально-ориентированных текстов// Baltic Humanitarian Journal. 2022. Т. 11. № 3(40)

²¹ Drayzer. T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjiması. –T.: "Yangi nashr", 2019. – B.45

shug‘ullangan, hayotning go‘zalliklaridan bebahra bo‘lgan, qo‘pol va manaviy qoloq yoshlarning ijtimoiy turmush tarzi haqida xabardor bo‘lishi talab qilingan.

Tarjimon bevosita asl nusxa yordamida muallifning genderga xos leksik birliklar orqali nima demoqchiligini anglab yetishi va uni kitobxonga havola qilishi bilvosita tarjimaga qaraganda osonroq kechadi. Bilvosita tarjima ham bevosita tarjimaning vazifalarini bajara oladi, faqat tarjimadan qilingan tarjima natijasida vositachi til tarjimasidagi ayrim kamchilik va nuqsonlar keyingi tarjimaga ham o‘tishi muqarrar²². Masalan, *“He took Carrie's little hand, and a current of feeling swept from one to the other. "I'm so tired," said Carrie, leaning back in the car when Drouet began to talk. "Well, you rest a little while I smoke," he said, rising, and then he foolishly went to the forward platform of the car and left the game as it stood.”*²³ *“Он взял маленькую ручку Керри, и их обоих словно пронзил электрический ток. – Я так устала, – ответила Керри, когда Друэ заговорил было с ней в вагоне конки, и откинулась на спинку сиденья. – Тогда посиди, а я пойду покурю. Он встал и вышел на площадку, беспечно предоставив игре идти своим чередом.”*²⁴ *“U Kerrining latif qo‘lidan tutgandi, ikkovlariga ham elektr toki o‘tganday bo‘ldi. – Juda charchadim-a, – Kerri shunday deya o‘rindiqning suyanchig‘iga o‘zini tashladi. Nega deganda, Drue konkaning vagonida gap boshlamog‘chi bo‘lib turgan edi-da. – Unday bo‘lsa, sen dam olib o‘tir, men chiqib chekib kelay, – Drue qo‘yni bo‘riga topshirib, vagon maydonchasi tomon yurdi.”*²⁵ Rus tilidan bilvosita o‘zbek tiliga o‘girilgan ushbu parchaning asl nusxasidagi erkak va ayol munosabatlarini ko‘rsatuvchi *“a current of feeling swept from one to the other”* jumlasini o‘zbek tiliga *“ikkovlariga ham elektr toki o‘tganday bo‘ldi”* tarzida berilishi bilan, ma’no tomonidan asl nusxadan chetlab ketish kuzatilgan, chunki aynan rus tilidagi *“их обоих словно пронзил электрический ток”* jumlasini so‘zma so‘z tarjima qilingan. Lekin keyingi o‘rinlarda ruscha tarjimadagi *“предоставив игре идти своим чередом”* iborasini *“qo‘yni bo‘riga topshirib”* gendrologik zoomorfizm orqali berilishida asliyatning tagma’nosi o‘zbek o‘quvchisiga to‘laqonli yetkazib birilgan. Shu sababli, bilvosita tarjimada ba’zi o‘rinlarda asliyatga ham murojaat qilish, agar vositali til tarjima variantlari bir nechta bo‘lsa, asl nusxaga eng yaqin bo‘lgan shaklni vositachi sifatida tanlab olish o‘rinlidir.

Tarjima bu qayta yaratilgan san’at asari bo‘lib, tarjimon ushbu jarayonning asosiy yaratuvchisidir. Asliyat ruhini o‘zga til vakillariga to‘laqonli yetkazishda tarjimondan ijodiy yondashuv talab etiladi. Tarjimaning aniq bir belgilangan qoida va qoliplari mavjud emas, ammo biz taklif etgan yuqoridagi barcha mezonlar ketma-ket uzviylikda bir-birini to‘ldirib, tarjima mukammalligiga erishishda tarjimonga qo‘l keladi va gender leksikasining badiiy asar tarjimasi muqobilligida ham samarali natija ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning leksik-semantik muammolari”** nomli ikkinchi bobi ham ikki fasldan iborat. **“O‘zbek va ingliz tillarining leksik-semantik sathdagi gender**

²² Sharipova.B. Ziyodullayeva.Sh. Badiiy matn tarjimasida bilvosita tarjima va bevosita tarjimaning ustunlik tomonlari//Miasto Przyszłości. Impact Factor: 9.2. Kielce, 2023. – B.31-33

²³ https://en.wikisource.org/wiki/Sister_Carrie/Chapter_11

²⁴ Драйзер.Т. Сестра Керри. Пер.с англ. М.Волосов. – Азбука, 2024. – С.57

²⁵ Drayzer. T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjimasi. – T.: “Yangi nashr”, 2019. – B.119

muvofigliklari” deb nomlangan birinchi faslda gender konseptining leksik-semantik maydon xususiyatlari va gender leksikasining semantik jihatdan guruhlashtirish, genderlik ifodasida neytral leksemalarning o‘rni va ahamiyati, tarjimada muvofiglik darajalari kabi masalalar haqida so‘z boradi. Shuningdek, V.N.Komissarov tomonidan ishlab chiqilgan tarjima muvofigligiga erishishning beshta ekvivalentlik darajalari²⁶ga asoslanib, ikki tilning leksik-semantik sathida gender muvofigliklari ko‘rinishlarini quyidagicha tartibda tasniflandi.

1. Onomastikada genderlik ifodasi
 - a) Antroponimik gender birliklari tarjimasi
 - b) Toponimlar gender leksikasi sifatida
2. Oila a‘zolari hamda qarindoshchilik munosabatlarini bildiruvchi gender leksikasi bilan badiiy asarlarda inson jinsini aniqlash.
3. Kasbiy faoliyat turlarining gender leksikasiga bog‘liqlik jihatlari
4. Insonlarning ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘liq holatlarga ko‘ra genderlikni farqlanishi
 - a) Kiyimlar va matolar nomining gender leksikasi sifatida qo‘llanishi
 - b) Jinsga mos holda tana a‘zolari nomi bilan genderlikni aniqlash
 - c) Uy-ro‘zg‘or buyumlari hamda mehnat qurollarining gendrologik jihatlari
 - d) Pardozi-andoz buyumlari, taqinchoqlar hamda bezaklarning gender leksikasi sifatida qayta yaratish
5. Gender leksikasining morfologik jihatdan farqli tomonlari
 - a) Ot so‘z turkumiga tegishli gender komponentli leksik birliklar
 - b) Jinsga xos bo‘lgan fe‘llarning genderlikni farqlashdagi ahamiyati
 - c) Gendrologik sifatlar orqali insonlarni tasvirlash
6. Antonomaziyalar bilan genderlikni aks ettirish

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan ingliz adabiyoti asarlaridagi gender leksik birliklari yuqoridagi muvofiglik darajalari tasnifi asosida tahlilga tortildi. Masalan, gender leksikasi barcha sohalarda keng qo‘llanilganligi bois toponimlarda ham o‘z ifodasiga ega. Onomastik tizimda transtoponimizatsiya usuli kuzatiladi va bu aynan kishi atoqli otlarining joy nomlari sifatida kelishi natijasida antroponimlarning toponimlarga aylanishidir²⁷. Masalan, *Bibixonim madrasasi*, *Bobur bog‘i*, *Avliyo Sofiya ibodatxonasi* kabi leksik birliklar joy nomlarini bildirsa-da, ularning tag zaminida ikki jins vakillarining nomi orqali genderlikni anglash qiyin emas. Badiiy asarlarda foydalanilgan transtoponimlar tarjimada qay tarzda berilishini misollar bilan ko‘rib chiqilgan. *“Lowood Institution”*. – *This portion was rebuilt A.D. “by Naomi Brocklehurst, of Brocklehurst Hall, in this county. Let your light so shine before men, that they may see your good works, and glorify your Father which is in heaven.-St. Matt. v. 16”*²⁸ *“Lovud muruvvat boshpanasi”* degan yozuv o‘yib bitilgandi. *Binoning mana shu qismini qaysidir bir yili broklxerst-xollik missis Naomi Broklxerst ta‘miratgan deyishadi.*²⁹ Ushbu parchadagi joy nomlaridan *“Lowood Institution”* leksemasini mutarjim *“Lovud boshpanasi”* shaklida qisman kalkalash usulida transformatsiya qilgan, lekin aynan

²⁶ Комиссаров. В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990. – С. 51-85

²⁷ Yo‘ldoshev. B. “O‘zbek onomastikasi masalalari” tanlanma fanidan uslubiy qo‘llanma. – Samarqand. SamDU nashri, 2011. – B.44

²⁸ Bronte. Ch. Jane Eyre: – Free eBooks at Planet eBook.com. – P.72

²⁹ Brote. III. Jeyn Eyr.- Tarjimon Fozil Tilovatov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – B.7

genderlikni ifoda etuvchi “*Naomi Brocklehurst, of Brocklehurst Hall*” transtoponim iborasi tarjimasida kontekst ma’nosidan kelib chiqib “*broklxerstxollik missis Naomi Broklxerst*” tarzida o’giran. Buning natijasida gender antroponimi o’z vazifasini saqlagan holda atoqli ot shaklida, toponimik leksema esa sifat holatiga o’zgartirilgan. Bu usul bilan biz tarjimaga putur yetgan deya olmaymiz, chunki takroriylikni oldini olish maqsadida yuqoridagi leksik-grammatik transformatsiyaning o’rin almashish usulidan samarali qo’llanilgan va muallifning ma’lumotini yetkazishda tarjimon muvofiq variant tanlay bilgan.

Ijtimoiylik nuqtai nazaridan kiyimlar va ularning asosi bo’lgan matolar insonlarning eng oldingi ehtiyojini qondiruvchi tushunchalardir. Badiiy asarlarda obrazlilik masalasida, qahramonlar tasvirini berishda bu turkumga kiruvchi gender leksik birliklardan mualliflar yetarlicha foydalanadilar. Jumladan, Margaret Mitchelning tahlilimiz ostidagi asarida shunday jumlar mavjud. “*She picked up Ellen’s Paisley shawl to wrap about her but the colors of the faded old square clashed with the moss-green dress and made her appear a little shabby. Opening Aunt Pitty’s closet she removed a black broadcloth cloak, a thin fall garment which Pitty used only for Sunday wear, and put it on.*”³⁰ “*U Ellining kashmiri ro’molini olib yelkasiga tashladi, lekin eski matoning rangi o’chgan, yashil yo’sin rangdagi ko’ylakka mos tushmasdi, Skarlett qandaydir g’aribona ko’rinish kasb etdi. Shunda u Pitti ammaning shkafini ochdi va Pitti faqat yakshanba kunlari o’raydigan qora harir yopinchiqni olib yelkasiga tashladi.*”³¹ Asardan olingan ushbu bosh qahramonning voqealar ketma-ketligidagi tasvirida ayol jinsi vakillarining kiyimlari qatoridan o’rin olgan “*shawl, dress, broadcloth*” so’zlari o’zbek tarjimoni tomonidan “*ro’mol, ko’ylak, yopinchiq*” tarzida o’zbekchalashtirilgan. Ushbu kiyim nomlari bilan birgalikda ularning ranglari, sifati va asos matolari ham mayda tasviriy detallar sifatida qo’llanilgan bo’lib, “*Paisley shawl, the moss-green dress, a black broadcloth*” singari tasviriy ifoda beruvchi birikmalarni tarjimon talqinida “*kashmiri ro’moli, yashil yo’sin rangdagi ko’ylak, qora harir yopinchiq*” shaklida ko’rishimiz mumkin. Biroq shuni ta’kidlash joizki, muallif tomonidan ushbu parchada berilgan “*a thin fall garment*” iborasi tarjimada tushurib qoldirilgan. Xuddi shu so’z birikmasini “*yupun kuz kiyimi*” yoki “*playsh*” tarzida tarjima qilinganda maqsadga muvofiq bo’lar edi. Bundan tashqari, mato nomini tarjima qilishda ham ayrim kamchiliklar mavjud deb o’ylaymiz, chunki asliyatda berilgan “*Paisley shawl*” so’z birikmasi tarixiga nazar tashlasak, bu xildagi sharflar XVIII asr oxiri va XIX asrlarda Yevropada ayollar kiyimlarining zamonaviy bir qismi bo’lganligiga va ular Hindistonning Kashmir ro’mollaridan andoza olgan holda XVII asrda Yevropada ishlab chiqarila boshlaganligiga guvoh bo’lamiz³². Tarjimon aynan shu o’rinda bir oz anglashilmovchilik holatlariga yo’l qo’ygan, chunki “*Paisli ro’moli*” bu aynan “*Kashmir ro’moli*” tarzida tarjima qilish bilan, shu buyumning kelib chiqishi tarixiga putur yetkazgan holda, kitobxonga butunlay boshqa turdagi ro’mol haqida ma’lumot beradi. Bu kabi kichik xatoliklarga yo’l qo’yish asliyatdagi muallif qahramoni tasvirini o’zgartirib yuborishi mumkin. Agar mutarjim shu “*Paisley*

³⁰ Mitchell.M. Gone with the wind. – USA: Warner books edition,1993. – P.471

³¹ Mitchel.M. Shamollarda qolgan hislarim: roman (I-II-kitoblar) – Toshkent: Pravo-press,2020. – B.81

³² https://en.wikipedia.org/wiki/Paisley_shawls.

shawl” iborasini izohlash usuli bilan tarjima qilganda yaxshiroq natijaga erishgan bo‘lar edi.

Gender leksikasining leksik-semantik jihatdan guruhlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda so‘zlarning jins belgilari yordamchi leksemalar tomonidan ta‘minlanadi yoki kontekst orqali anglashiladi. Ushbu guruh leksemalar tarjimasini muvofiqligiga erishishda transliteratsiya, transkripsiya, konkretlashtirish, satr osti izohlash, generalizatsiya, o‘rin almashish va sinonimlar bilan almashtirish kabi transformatsiya turlari keng qo‘llaniladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Ikki tilda farqli semantik maydonga ega gender leksikasini tarjima qilishning o‘ziga xosliklari”** deb nomlanadi. Tilshunoslikning til birliklarini ma‘no jihatdan o‘rganuvchi semasiologiya bo‘limi mavjud bo‘lib, ma‘noga ega bo‘lgan birliklar ya‘ni so‘z uning obyekt sifatida qaraladi. Ma‘no anglatuvchi birliklar o‘z navbatida leksik ma‘no, grammatik ma‘no hamda stilistik ma‘no turlariga bo‘linadilar va aynan leksik ma‘no boshqa ma‘nolarga qaraganda konkretlik va individuallikka ega³³. Xuddi shu o‘rinda, so‘zlarning tildagi lug‘aviy ma‘nosi bilan ularning nutqiy ma‘nosini farqlanadi. Nutqiy ma‘no matn bilan uzviylikda namoyon bo‘ladi, ya‘ni bunda bir so‘z matn mavzusiga ko‘ra turli xil semalarda kelishi mumkin. Bu holatni biz badiiy asarlarda ham kuzatamiz, chunki badiiylik bu nutqiy muloqotni yozma shakli hisoblanadi. Muallif o‘z asari tasviriyligini, emotsionalligini oshirish uchun bir shaklga ega leksik birlikni bir necha ma‘nolariga murojaat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta‘kidlash joizki, tildagi genderlikni ifoda etuvchi birliklar leksik ma‘noga (bu o‘z ichiga lug‘aviy va nutqiy ma‘nolarni qamrab oladi) ega bo‘lish jihatidan o‘z semantik maydonlarini tashkil qiladilar va bu maydon tarkibiga gender komponentli leksik birliklarni, genderlikni ifoda etuvchi lisoniy birliklarni hamda erkaklar va ayollar tomonidan nutqiy jarayonda qo‘llaniluvchi (bu asosan tasviriylig uchun xizmat qiladi) nolisoniy birliklarni kiritish mumkin. Badiiy asarlarda mualliflar bir semantik maydonga birlashgan gendrologik birliklardan ularning ma‘nolariga ko‘ra turli vaziyatlarda foydalanadilar va asar tarjimasida ikki tildagi farqli semantik maydonga ega bo‘lgan gender leksikasini talqin qilishda mutarjimlar bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Tarjimon uchun to‘siq bo‘luvchi bu xil farqli semantik maydonni vujudga kelishiga lingvistik, milliy-madaniy, davriy, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy omillar sabab bo‘ladi. Ushbu faslda badiiy asar tarjimasida muqobilsiz leksikaning kelib chiqish omillari hamda ular natijasida paydo bo‘luvchi tarjima g‘alizliklarini tilshunos olimlar L.Barxudarov hamda V.Komissarovlarning transformatsiya usullari yordamida bartaraf etish borasida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, yuqorida berilgan omillar natijasida paydo bo‘luvchi muqobilsiz gender leksik birliklarini badiiy asar tarjimalarida ekvivalentlik darajalariga ko‘ra quyidagicha tasniflab, misollar bilan tahlilga tortildi.

1. Genderlikni ifoda etuvchi olmosh so‘z turkumiga tegishli muqobilsiz leksemalar

2. Insonlarga murojaat qilishdagi gendrologik muqobilsizlik

a) ayollar va erkaklarning maqomini bildiruvchi muqobilsiz so‘zlar

b) erkalatish ma‘nosidagi murojaatni bildiruvchi muqobilsiz leksik birliklar

³³ Irisqulov.M.T. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: “Yoshlar matbuoti”.2009. – B.104

3. Tilidagi ko‘chimlar yoki troplarda qo‘llanilgan gender komponentli birliklarning tarjimada qayta yaralishida muqobilsizlik holatlari

a) Muqobilsiz metaforik gender leksemalari

b) Metonimiyalarda muqobilsiz gender birliklari

4. Badiiy asar tarjimasida muqobilsiz gender evfemizmlari

a) Ayollarga xos bo‘lgan muqobilsiz evfemistik leksika

b) Erkaklarga xos bo‘lgan muqobilsiz evfemistik leksika

5. Zoomorfizmlar orqali genderlik ifodalovchi muqobilsiz nominatsiyalar

6. Xronotoplar tasvirida muqobilsiz gender leksemalar tarjimalari

Ma'lumki, ingliz tilida qisman grammatik jins kategoriyasi mavjud bo'lib, bu faqat egalik va kishilik olmoshlarida o'z aksini topadi, o'zbek tilida esa erkaklar va ayollarga xoslik faqat leksik qatlamda farqlanishini kuzatamiz. Ingliz badiiy asarlaridagi olmoshlar tarjimasini gendrologik ma'noga ega bo'lmagan neytral leksemalar bilan berilishida ayrim nomuvofiqliklar yuzaga keladi. *"How wise Ashley was and how well he knew her! He had only to press the damp earth into her hand to bring her to her senses. She was in the hall preparing to close the door when she heard the sound of horse's hooves and turned to look down the driveway. To have visitors at this of all times was too much. She'd hurry to her room and plead a headache."*³⁴ *"Baribir, Eshli qanchalik aqlli, uni, Skarlettni, juda yaxshi biladi! Uning qo'liga bir siqim tuproqni tutqazib qo'ydi – va u o'ziga kelib qoldi. Xollga kirib eshikni yopayotgan chog'da Skarlett tuyoq tovushlarini eshitdi va kelayotgan kim ekan, deb burilib qaradi. Hozir mehmon kutishga tobi yo'q, endi bunisi ortiqcha! Tezroq yuqoriga, xonasiga chiqib olib boshi og'riyotganini bahona qilishi kerak."*³⁵ Ushbu kichik bir parchada muallif tomonidan o'nga yaqin egalik va kishilik olmoshlari keltirilgan va uning o'zbekcha talqinida tarjimon kitobxonga ma'lumotni to'liq yetkazib berish uchun bir qator tabdil usullaridan o'rinli foydalangan. Masalan, ingliz tilidagi *"how well he knew her"* jumlasini *"uni, Skarlettni, juda yaxshi biladi"* tarzida o'girish bilan jumladagi *"he"* gender leksemasini tushurib qoldiradi. Bu esa tarjima nazariyasida implikatsiyadan foydalanish hisoblanadi,³⁶ chunki ushbu olmosh ma'nosi o'zbek tilida fe'l orqali anglashiladi va bunda takroriylikni oldini olish kuzatiladi. Muallif xuddi shu jumladagi *"her"* leksemasining lug'aviy ma'nosidan so'ng *"Skarlett"* bosh qahramon ismini qo'shib qo'yish bilan esa, jumladagi genderlik ifodasiga *"substitution – almashtirish"*³⁷ bilan aniqlik kiritadi. Bundan tashqari, *"she heard the sound of horse's hooves"* jumlasini tarjimasida *"she"* olmoshini *"Skarlett"* antroponimi bilan almashtirib berilgan. Keyingi yana bir *"She'd hurry to her room and plead a headache."* jumlasidagi *"she, her"* olmoshlari modulyasiya usulida almashtirilib, *"Tezroq yuqoriga, xonasiga chiqib olib boshi og'riyotganini bahona qilishi kerak."* shaklida o'z ifodasini topgan. *"He had only to press the damp earth into her hand to bring her to her senses"* jumlasidagi olmoshlar tarjimasida esa kontekstdan kelib chiqqan holda *"Uning qo'liga bir siqim tuproqni tutqazib qo'ydi, va u o'ziga kelib qoldi."* tarzida tarjima qilingan va ushbu parchadagi ikki jins

³⁴ Mitchell.M. Gone with the wind. – USA: Warner books edition,1993. – P.446

³⁵ Mitchel.M. Shamollarda qolgan hislarim: roman (I-II-kitoblar)/ – Toshkent: Pravo-press,2020. – B.32

³⁶ Хабибуллина.Э. Языковые трансформации при переводе татарской литературы на турецкий язык: кан. фил. наук.....автореф. – Казань, 2016. – С.10

³⁷ <https://studfile.net/preview/3544031/page:16/>

vakilini olmoshlar orqali berilishida bir oz g'alizlikni kuzatish mumkin. Aynan ushbu jumlaning "Es-hushuni o'ziga keltirish uchun Eshlining unga bir siqim nam tuproqni tutqazishi yetarli edi" shaklida berish bilan ko'proq muvofiqlikka erishilar edi. Tahlillarimizdan ko'rinib turganidek, tarjimada muqobilsiz leksik birlik sifatida uchunchi shaxs birlik semasidagi olmoshlar orqali genderlikni ifodalash murakkab masalalardan biri hisoblanadi va keng yondashuv talab qiladi.

Nazariy va amaliy fikrlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash joizki, badiiy asarlarda berilgan muqobilsiz gender leksik birliklarini o'zga tilga o'girishda, tarjimon o'zining barcha bilim va salohiyatidan foydalanib, tarjima mezonlariga amal qilgan holda, transformatsiyaning u yoki bu usullarini o'rinli qo'llash bilan asiyatdagi mazmunni atroflicha yetkazib bera oladi.

Tadqiqotning uchunchi bobi "**Gender leksikasi tarjimasida muqobillikka erishishning lingvomadaniy masalalari**" deb nomlanadi va ushbu bob ham ikki fasldan iborat. "**Gender leksikasi lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyekti sifatida**" nomli birinchi faslda lingvomadaniyatshunoslik obyekti sifatida badiiy asarlarda gender leksik birliklarining madaniyatga bog'liq ko'rinishlari atroflicha bayon qilingan, o'zbek va ingliz tillaridagi misollar tahlili bilan boyitilgan. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining kesishish nuqtasida paydo bo'lgan bu soha til va madaniyatni uzviy bog'liqlikda o'rganadi. Lingvomadaniyatshunoslik atamasi dastlab V.N.Teliya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qo'llanilgan. Uning fikricha, "Lingvomadaniyatshunoslik shaxsiy va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır"³⁸. Til va madaniyat borasida N.V.Timko shunday fikrlar bayon qiladi. "Til madaniyatdan tashqarida, ya'ni ijtimoiy meros bolib qolgan amaliy ko'nikmalar va g'oyalar to'plamidan tashqarida mavjud emas, u bizning turmush tarzimizdir. Til nafaqat madaniyatning mulki, balki madaniyatning ilk shartlaridan biridir, til madaniyatning namoyishi yoki ko'zgusi sifatida emas, balki qisman mustaqil asos sifatida uni ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, bir asos til mutlaqo farqli etnik guruhlariga xizmat qilishi mumkin"³⁹. Insonni o'rab turgan borliq va undagi urf-odatlar, marosimlar, hududiy va milliy qadriyatlar, tarixiy jarayonlar, diniy e'tiqod kabi bir qator masalalar millatning madaniy belgisi hisoblanadi. Badiiy asarlarda olam milliy manzarasi komponentlari til birliklari yordamida faollashadi. Gender lingvistikasi ham milliy-madaniy tushunchalarni, jumladan, lingvomadaniyatshunoslikni aks ettirishda adabiyotshunoslikning yondosh sohalaridan biri sanaladi. Erkak va ayol o'rtasidagi millatga xos bo'lgan hurmat, izzat, ehtirom, oilaviy munosabatlardagi gender tenglik masalalari yoki ikki jins vakillarining diniy va dunyoviy qarashlaridagi tafovutlar kabi masalalarni badiiy asarlarda berilishi, gender leksikasini lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyektlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Ushbu faslimizda lingvomadaniy makonda erkak va ayol munosabatlarining gender leksikasi bilan faollashuvi, oilaviy munosabatlarda, marosimlar va urf-odatlarda genderlik ifodasi, diniy qarashlarda genderlikni berilishi, lingvokulturema va frazeologizmlarda genderlikni aks etishi kabi masalalarga to'xtalib o'tildi. Yuqoridagi ko'rinishlar negizida gender leksik birliklarining faollashuvi quyidagicha tasniflab chiqildi.

1. Jamiyatda gender tenglik munosabatlari

³⁸ Телия.В.Н. Русская фразеология. – М.: 1982. – С.20-25

³⁹ Тимко.Н.В. Фактор "культура" в переводе, – Курск. гос. ун-т. – 2-е изд., 2007. – С.28

2. Erkak va ayol muloqotida o‘zaro hurmat, izzatni bildiruvchi gender leksik birliklari

3. Oiladagi ikki jins vakillarining o‘zaro munosabatlarida qo‘llanuvchi gender leksikasi

4. Er va xotin muloqotidagi faol genderemalar

5. Oilaviy masalalarda gender neytral birliklarning ishlatilishi

6. Diniy manbalarda genderlikni aks etishi

7. Erkak va ayol diniy qarashlarida genderlikni ifodalanishi

8. O‘zbek millatiga mansub marosim va urf-odatlarda genderlikni aks etishi

9. Ingliz milliy marosimlari va urf-odatlarida genderlik ko‘rinishlari

10. Realiyalarning genderga bog‘liq jihatlari

11. Kasb-hunarga oid gendrologik leksemalar

12. Maqol va matallarda genderlik ifodasi

13. Idiomalar madaniyat ko‘zgusi

Oiladagi ota-onaning o‘zaro murojaat birliklarini millatning til madaniyat belgisi sifatida olish mumkin. Ayollar tabiatan nafosat sohibalari bo‘lganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va xilma-xil leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so‘zlarni, ijobiy bo‘yoqdor leksik birliklarni ko‘proq qo‘llaydilar. Suhbat predmeti biroz bo‘rttirilgan holda bo‘ladi. Emotsional holatlar – hayratlanish, sevinish, qo‘rqish, nafratlanish, xafa bo‘lish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ular nutqlarida uchratish tabiiy. Bundan kelib chiqqan holda, murojaat uchun qo‘llanuvchi gender leksik birliklari erkak va ayol nutqida qo‘llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayolga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat shakllari tarzida uchraydi⁴⁰.

O‘zbek oilasida ayol kishi turmush o‘rtog‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ismini aytib murojaat qilishi milliy, madaniy va diniy urf-odatlariga zid hisoblanadi. Shu sababli, murojaatning og‘zaki shaklida ayollar turmush o‘rtoqlariga mavhum leksik birliklardan, jumladan “*ey, hoy, siz*” kabi leksemalar bilan, aniq semantik ma’noga ega bo‘lgan “*dadasi, otasi, bobosi*” kabi uchunchi shaxs birlikdagi genderemalar orqali va ba’zan o‘z farzandlari ismlari bilan chaqirish usulida murojaat qiladilar. Murojaat maqsadiga ko‘ra ba’zi zamonaviy oilalarda “*azizim, begim, jonim, yagonam*” kabi his-tuyg‘uni kuchaytiruvchi leksemalardan ham foydalaniladi. O‘zbek madaniyatidan farqli o‘laroq, ingliz oilasidagi ikki jins vakillari o‘zaro yuzma-yuz muloqotlarida er va xotin ismlarini, erkalatish ma’nosidagi qisqartma gender antroponimlarini hamda “*my dear, my sweetheart*” kabi murojaat leksemalarini qo‘llaydilar. Bundan tashqari, ba’zi ingliz adabiyotidan qilingan tarjimalarda asliyat tili vakillarining madaniy qiyofalarini shakllantirish uchun ular nutqidagi “*you*” grammatik leksemi talqinida hurmat semasidagi “*siz*” olmoshi o‘rniga “*sen*” ikkinchi shaxs birlik uchun qo‘llanuvchi olmoshi va gap kesimining unga moslashuvi kuzatiladi. “– *Sen bilan adi-badi aytishib o‘tirishga sira ham toqatim yo‘q! – Xotini shunday deya stol yonidan ketmoqchi bo‘lib qo‘zg‘alib qoldi. – Menga qara, keyingi paytlarda senga bir nima bo‘lganmi o‘zi? – Gerstvod ham keskinroq gapirib o‘rnidan qo‘zg‘olgandi, xotini*

⁴⁰ Ko‘chimova, P. Erkak va ayol nutqida murojaat so‘zlar semantikasi// International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”, 2022. – B.683

beixtiyor to‘xtab qoldi. – Nahotki odamga o‘xshab gaplashib bo‘lmaydi sen bilan? – Men bilan gaplashsa bo‘ladi, – dedi missis... Yo‘qsa biz sensiz ketaveramiz.”⁴¹

Tahliliy misoldan shuni anglash mumkinki, oiladagi er-xotinning o‘zaro genderlik ifodalovchi murojaat leksemalari har ikki tilda ham badiiy asarlarga bevosita ko‘chib o‘tadi va millatga xos madaniyat belgisi sifatida ingliz adabiyotida ayollar dominantasi aks etsa, o‘zbek adabiyotida bu holat ayollar nutqida yostiqdoshiga nisbatan hurmat, sabrlilik, bir-birini o‘zaro tushunishga intilish strategiyalarida namoyon bo‘ladi⁴². Har ikki millat adabiy jarayonida er-xotin murojaat leksemalari muallif va kitobxon o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqot vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda ayollar va erkaklarning tasviriyligi, ularning emotsional bo‘yoqdorligi, ikki jinsning lingvistik nutq shakllari ifodasida gender leksikasi tanloviga turli milliy-madaniy omillar, ya’ni har bir shaxsning etnik kelib chiqishi, kasbi-kori, oilaviy munosabatlari, diniy qarashlari, qadriyatlar va urf-odatlar bevosita ta’sir qiladi. Va bu jarayonda maqol, matal, idioma kabi frazeologik birliklar, lingvokulturema, realiya hamda kasbiy xos so‘zlar genderlik faollashuvida lingvistik tasvir vositalari vazifasini bajaradi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **“Gender leksikasining lingvomadaniy komponentini tarjimada yetkazib berish muammosi”** deb atalgan. Ushbu faslda gender leksikasining lingvomadaniy jihatdan tarjimada qayta yaratish va kitobxonga yetkazib berish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Tarjima – tillar orasidagi vositachilikka yo‘naltirilgan o‘ziga xos adabiy faoliyat, ya’ni tillarning rang-baranglik xususiyati asosida paydo bo‘ladigan madaniyatlararo muloqot to‘sig‘ini yengib o‘tish jarayonidir⁴³. G‘.Salomov ta’biri bilan aytganda xalqlarning o‘zaro do‘stona munosabat o‘rnatishlari, bir-birlarining madaniy boyliklarini o‘rganishlari va o‘zlashtirishlarini tarjimasiz tasavvur qilish qiyin⁴⁴. Tarjima ikki til o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi, tarjimon shu ko‘prikni quruvchisi sifatida ma’suliyat bilan asliyat tili vakillarining madaniyatiga aloqador barcha sohalardan xabardor bo‘lishi, ularga putur yetkazmay bir millat madaniyatini boshqa bir millatga tanishtirishi lozim. Masalan, tarjimon gender leksik birliklarini lingvomadaniy jihatdan qayta yaratishda, avvalo asar matnida berilgan voqealar rivojida qatnashuvchi millat tarixini, dinini, urf-odatlarini, milliy ma’rosimlari, turmush tarzi hamda ijtimoiy-adabiy sharoitlarini o‘rganadi va keyingi o‘rinda qayta yaratilishi talab etilgan genderga xos bo‘lgan asliyat tili vositalarini va uslubiy yo‘llarini tahlil qilib chiqadi. So‘nggi vazifa sifatida ona tilida ifodalash uchun kerak bo‘ladigan gendrologik til birliklarini qidirib topadi.

Lingvomadaniy komponent sifatida lingvokulturema bu til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Tarkibiga ko‘ra lingvokulturemalar

⁴¹ Drayzer.T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjimasini. –T.: “Yangi nashr”, 2019. – B.203

⁴² Ismoilova.Sh. Hushmuomalalik kategoriyasi va hurmat konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi gender xususiyatlari// Science and innovation international scientific journal Volume 1. Issue 6, 2022. – B.988

⁴³ Rahimov G. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik majmua. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – B.21

⁴⁴ Salomov.G‘. Til va Tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – B.119

fonemadan tortib tekstemagacha bo‘lgan lingvistik birliklarni qamrab oladi⁴⁵. Tilning ifoda birligi hisoblangan gender verbalizatorlarining lingvistik va ekstralingvistik jihatdan lingvokulturemadagi faollashuvi badiiy asarlarda hamda ularning tarjimalarida yaqqol aks etadi. Genderlik verbal holatida muloqot birligi vazifasida qo‘llanilsa, noverbal gender leksik birliklaridan ikki jins vakillarining xatti-harakatlari, tashqi ko‘rinishlari hamda obrazlilikni oshiruvchi emotsional bo‘yoqdorlik uchun foydalaniladi. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan ingliz badiiy asarlari va ularning o‘zbek tilidagi tarjimlarida yuqoridagi masalalarning berilishiga e’tibor qaratamiz. *“When you are trying to get something out of a man, don’t blurt it out as you did to me, Do try to be more subtle, more seductive. It gets better results, ...you looked as hard as nails. I’ve seen eyes like yours above a dueling pistol twenty paces from me and they aren’t a pleasant sight. They evoke no ardor in the male breast. That’s no way to handle men, my dear. You are forgetting your early training”*⁴⁶. Bosh qahramon Skarlettga oppozitsion obraz bo‘lgan Rett Batlarning maslahatida muallif ingliz madaniyatida ayollar erkaklardan umidvor bo‘lganda o‘zlarini qay darajada tutishlari, erkaklar o‘rtasida o‘tkaziladigan duel marosimi, ayol kishining har qanday vaziyatda suhbatdoshiga muloyim munosabatda bo‘lishi lozimligini, oliynasab oilalarda qiz bolalarga yoshligidan o‘qtirilishi kabi masalalarni lingvokulturemaning verbal ko‘rinishlari bilan ifodalangan. Tarjimon R. Axtamova ushbu parchani quyidagicha talqin qiladi. *“Agar erkak kishidan biror narsa undurmoqchi bo‘lsangiz, hozir menga sayraganingizdek, borini birdan to‘kib solmang, uddaburonroq va jozibadorroq bo‘lishga harakat qiling. Bu yaxshi natija beradi...judayam qattiqqo‘l ishbilarmondek ko‘rindingiz, Siznikiday ko‘zlarni men duelda, yigirma qadam narida turib, meni nishonga olayotgan raqibimda ko‘rgandim-aytish joizki, bu holat yoqimli emasdi. Bu ko‘zlar erkakning yuragida olov yoqa olmaydi. Erkak kishi bilan bunday muomala qilmaydilar, go‘zalim mening. Siz yoshligingizda sizga o‘rgatishgan narsalarni unutgansiz.”*⁴⁷ Asliyatda berilgan lingvomadaniy komponentlar tarjimon tomonidan transformatsiya usullaridan foydalanib muqobil til belgilari yordamida tarjima qilingan. Masalan, mutarjim birgina *“They evoke no ardor in the male breast”* iborasini so‘zma-so‘z o‘girishdan voz kechgan holda *“Bu ko‘zlar erkakning yuragida olov yoqa olmaydi”* iborasi bilan tarjima qilishida to‘liq muqobillikni ko‘rish mumkin. Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning tilga oid ma’nosi haqida, balki madaniyatning asosiy elementini ham ochib beradi. Aynan mana shu madaniy belgilarni gendrologik lingvokulturemalardagi noverbal shakllarini quyidagi tahliliy misollarda ko‘rib chiqamiz. *“Now” he observed to Drouet, with a tone of good fellowship, “when you leave your wife alone, you must let me show her around a little. It will break up her loneliness.” “Sure” said Drouet, quite pleased at the attention shown”*⁴⁸. Teodor Drayzerning sevgi uchburchagi asosida yozilgan *“Sister Carrie”* asaridan

⁴⁵ Komilova.N.A. Gender konseptual semantikasi verbalizatorlari va ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tadqiqi (hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tillari materialida): fil. fan. bo‘y. dok (PhD) diss. avtoref... – Farg‘ona, 2024. – B.19

⁴⁶ Mitchell.M. Gone with the wind. – USA: Warner books edition,1993. – P.488

⁴⁷ Mitchel.M. Shamollarda qolgan hislarim: roman (I-II-kitoblar)/ –Toshkent: Pravo-press,2020. – B.11

⁴⁸ Dreiser. T. Sister Carrie. New York: Grosset and Dunlap publisher, 1917. – P.110

olingan ushbu parcha E.Nosirov tomonidan bilvosita rus tilidan quyidagicha tarjima qilingan. *“Gap shunday: siz ketib, rafiqangiz yolg‘iz qolganda, – dedi yaxshigina doiradagi odamlarga xos ohangda, – yo‘qligingizda yuragi tars yorilib ketmasligi uchun uni biroz o‘ynatishimga ijozat berishingiz kerak. – O, albatta! – dedi Drue Gerstvodning o‘ta mehribonligidan erib ketib.”*⁴⁹ Ushbu kichik bir parchada hududiy madaniyatga tegishli bo‘lgan verbal xatti-harakatdagi invariantlilik, ya’ni o‘zbek kitobxonlari uchun butunlay notanish bo‘lgan madaniyat belgisini anglash mumkin. Ushbu parchaning ruscha tarjimasiga nigoh tashlaymiz. *“– Вот что: когда вы уедете и ваша супруга останется одна, – сказал Герствуд тоном доброго приятеля, – вы должны разрешить мне немного развлечь ее, чтобы она не слишком тосковала в ваше отсутствие. – О, конечно! – сказал Друэ, чрезвычайно польщенный вниманием Герствуда.”* Muallifning *“when you leave your wife alone, you must let me show her around a little”* jumlasini tarjimon *“yo‘qligingizda yuragi tars yorilib ketmasligi uchun uni biroz o‘ynatishimga ijozat berishingiz kerak”* shaklida o‘g‘irish bilan ingliz madaniyatida nomahram erkak bilan ayol kishining birgalikda vaqtichog‘lik qilishi va bu holatga ayolning turmush o‘rtog‘i oddiy munosabatda bo‘lishi tabiiy vaziyat ekanligini ko‘rsatib bera olgan. Ayniqsa badiiylikni oshirish uchun asiyatda qo‘llanilgan *“show around”* frazali fe‘lini *“o‘ynatmoq”* shaklida, *“break up her loneliness”* jumlasini esa *“yuragi tars yorilib ketmasligi uchun”* frazeologik birlikma bilan tarjima qilinishida garchi gender komponentli leksikadan foydalanilmagan bo‘lsa-da, madaniyat elementi gender lingvokulturemasi yordamida aks ettirilgan.

Tadqiqot obyekti uchun tanlangan ingliz badiiy asarlarini o‘zbekcha tarjimalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Margaret Mitchelning *“Samollarda qolgan hislarim”* asarini tarjimon R.Axtamova tomonidan qilingan tarjimasida gender leksik birliklarining leksik-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan muqobillikka erishish darajalari Sharlotte Brontening *“Jeyn Eyr”* romonini tarjimon F.Tilovatov hamda Teodar Drayzerning *“Baxtiqaro Kerri”* asarini rus tilidan bilvosita tarjimon E.Nosirovlar tomonidan qilingan tarimalariga nisbatan to‘liqlik kasb etgan. Aynan gender komponentli hamda genderni ifodalovchi leksik birliklar tarjimalarida keyingi ikki asarlarda qisman muqobillik darajalari kuzatiladi.

XULOSA

1. Gender leksikasi lingvistik sohada atroflicha o‘rganilgan, lekin ushbu leksik birliklarni badiiy asarlar tarjimalarida muqobillikka erishish masalalari, jumladan, ikki jins vakillarining individual nutq birliklari va ularning badiiy asar tilida qo‘llanilgan verbal hamda noverbal ko‘rinishlarini qayta yaratish keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

2. Mukammal tarjimani yaratish uchun mutarjim ma’lum mezonlar asosida ish olib boradi. Shakl va mazmun, uslubiy, transformatsion, lingvomadaniy, pragmatik, terminologik hamda qiyoslash kabi mezonlarni ishlab chiqish va ular

⁴⁹Drayzer.T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjimasini. –T.: “Yangi nashr”, 2019. – B.107

yordamida muvofiq variant tanlash gender leksik birliklari tarjimasida muqobillikka erishishni ta'minlaydi.

3. Erkak va ayol nutqidagi lingvistik va ekstralingvistik til birliklari gender komponentli, gender ifodalovchi, gender neytral leksika hamda gender terminlari shakllarida namoyon bo'ladi. Ushbu birliklarning o'zaro farqlanishida, badiiy asarlar tarjimasida bir-biriga almashish holatlarida adekvatlikni saqlash tarjimon oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

4. Badiiy asarlarda gender muvofiqliklari antroponim va toponimlar, antonomaziyalar, kasbga oid leksemalar, oila a'zolari va qarindoshchilik munosabatlarni bildiruvchi so'zlar, ijtimoiy turmush tarziga xos bo'lgan leksik birliklar, erkak va ayol jinsini ifodalovchi morfologik qatlam shaklida namoyon bo'ladi.

5. Gender leksik birliklari tarjimasida farqli semantik maydon hosil qiluvchi lingvistik, milliy-madaniy, davriy, iqtisodiy-siyosiy hamda ijtimoiy omillar sababli vujudga kelgan g'alizliklarni bartaraf etish va tarjimada muqobillikka erishish uchun transliteratsiya, transformatsiya, modulyasiya, kompensatsiya, kalkalash, generalizatsiya va izohlashlar kabi transformatsiya usullaridan foydalaniladi.

6. Feministik asarlarni qayta yaratishda mutarjimlar tarjimaga bevosita va bilvosita yondashganlar. Aslyatdagi gender leksik birliklarini tarjima qilishda asosan rus tilidan qilingan bilvosita tarjimada tushurib qoldirish holatlari kelib chiqqan va bu to'liq muqobillikka erishishga to'sqinlik qilgan.

7. Tilda genderlik ifodasida ikki jins vakillari belgilari hamda ularga xizmat qiluvchi leksika bilan bir qatorda erkak va ayol uchun teng qo'llanuvchi gender neytral birliklar ham mavjud. Mualliflar tomonidan tasviriylik, badiiylik, emotsionallikni oshirish uchun xizmat qiluvchi ushbu leksik qatlam tarjimasini alohida e'tibor talab qiladi.

8. Lingvomadaniyatshunoslikning gendrologik ko'rinishlari, jumladan, jamiyatdagi gender tengligi, ikki jins vakillarining o'zaro munosabatlari, oiladagi erkak va ayolning bir-birlariga bo'lgan murojaatlari, qarama-qarshi jins vakillarining diniy qarashlari kabi masalalar badiiy asar tarjimalarida asosan gender leksik birliklari qayta faollashuvida o'z aksini topadi.

9. Madaniyat belgilarini kitobxonga yetkazishda lingvokulturema, realiya, lakuna, maqol, matal hamda idiomalar tarjimonga qo'l keladi. Aynan genderlik farqlanishida yuqoridagi til birliklari tarjimasida muvofiq shaklni tanlay bilish aslyatga teng ravishda yangi bir asar yaratishni kafolatlaydi.

10. Tarjimada lingvomadaniy munosabatlarni gender aspektida qayta yaratishda nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik til birliklariga ham e'tibor qaratish lozim. Badiiylikni oshirish maqsadida qo'llanilgan turli madaniyatga mansub ikki jins vakillarining xatti-harakatlari, mimika va jestlarini ifoda etuvchi leksik birliklarni to'liq muqobil shaklda berish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir.

**ЦИФРОВОЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ**

PhD.03/31.03.2021.Фил.76.05

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДУЛЛАЕВА НАРГИЗА АХМАДЖОНОВНА

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ
ПРОБЛЕМЫ ДОСТИЖЕНИЯ АЛЬТЕРНАТИВНОСТИ ПРИ
ПЕРЕВОДЕ ГЕНДЕРНОЙ ЛЕКСИКИ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание,
переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1. Phd/Fil1136

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.namdu.uz и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Сидиков Косим Абилович

кандидат филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хошимова Дилдора Мадаминовна

доктор филологических наук, профессор

Комилова Нилуфар Абдилкадимовна

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Ведущая организация:

Коканский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 при Наманганском государственном университете. Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршоҳ, дом 161. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс : (99869) 228-85-02; e-mail: info@namd.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета. (зарегистрирована за № _____). Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршоҳ, дом 161. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс : (99869) 228-85-02; e-mail: info@namd.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.

(Протокол рассылки № _____ от _____ 2025 года).

Зияев Авазбек Ихтиёрович

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

Тожибоев Илхомжон Усмонович

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Дадабоев Олимжон Ортиқович

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация к диссертации доктора философии PhD)

Актуальность и значимость темы исследования. В мировой лингвистике возрастает интерес к языковым явлениям, рассматриваемым через призму антропоцентризма, а исследования в этой области уделяют особое внимание индивидуальным особенностям личности, в том числе изучению гендерной лексики. Гендерные исследования относятся к различным дисциплинам – социальным, экономическим, литературным, лингвистическим и переводческим. Гендерный лексикон включает в себя не только слова и выражения, представляющие мужчин и женщин, но и гендерное равенство в обществе, гендерные стереотипы, а также культурные ценности народа. Таким образом, гендерные, то есть мужские и женские, представления о социальных и культурных ролях в языке, воссоздание этого явления в переводе, концептуальные взгляды на гендерные вопросы в областях лингвистики, теории перевода, культурологии и социологии требуют более детальных исследовательских подходов. Это обуславливает необходимость изучения гендерных лексических единиц как объекта перевода, как единицы межнационального общения.

В мировой лингвистике в настоящее время вопросы, связанные с человеческим полом, находятся в центре внимания независимой междисциплинарной области, называемой гендерными исследованиями. Одним из таких вопросов является изучение образцов художественной литературы, основным строительным блоком которой являются слова, а также социолингвистических и лингвокультурных особенностей гендерной лексики, используемой в них. Ведь общеизвестно, что роль художественных произведений в воспитании духовно совершенного и зрелого человека неопределима. Это, в свою очередь, также требует полноценных форм перевода произведений иностранной литературы, которые служат мостом между народами. Это определяет актуальность проведения научных исследований по таким вопросам, как переосмысление гендерной лексики в переводе художественных произведений, случаи достижения альтернативности в процессе перевода, а также сохранение гендерных проявлений культуры в переводе.

В нашей стране гендерные отношения детально изучаются в широкомасштабных процессах, осуществляемых на основе принципа «Новый Узбекистан – новое мировоззрение», а также растет потребность в сопоставительных лингвистических и культурологических исследованиях гендерных отношений среди народов мира. В переводе художественных произведений, написанных на английском и узбекском языках, при воссоздании гендерных лексических единиц не было проведено достаточных исследований по авторской идее, форме, содержанию и интерпретации признаков культуры. Необходимость проведения сравнительного анализа гендерного аспекта в переводах произведений английских писателей на узбекский язык определяет актуальность темы.

Диссертация подготовлена на основе Закона Республики Узбекистан от 2 сентября 2019 года №УП-562 «О гарантиях равных прав и возможностей женщин и мужчин», Постановления Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановления Президента Республики Узбекистан от 5 марта 2021 года №УП-5938 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы поддержки женщин и обеспечению их активного участия в общественной жизни», Указа Президента Республики Узбекистан от 18 февраля 2020 года №УП-5938 «О мерах по совершенствованию социально-духовной среды в обществе, дальнейшей поддержке института махалли и выводу на новый уровень системы работы с семьей и женщинами», Указа Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на период до 2020 года». 2022-2026» и другие нормативные правовые документы в этой сфере в определенной степени послужат реализации задач, поставленных в настоящем документе.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики. Диссертационная работа выполнена в рамках приоритетных направлений развития науки и техники республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Одной из современных областей лингвистики является растущий интерес к гендрологии. Одним из них является изучение гендерных исследований с точки зрения переводоведения. Это требует разработки гендерных исследований на месте. Это в свою очередь, требует развития гендрологических исследований. В частности, такие ученые, как Р. Столлер, Г. Джон, И. Костикова, Т. Крийнен, С. Баувел, Г.Лакофф, М. Джонсен, Д.Таннен, О. Йесперсен, Р.Лакофф, В. Телия и Н. Тимко провели ряд исследований, посвященных проявлению гендера как языковой единицы⁵⁰. Также в вопросах активизации гендерных лексических единиц в мировом исследовательском пространстве и их воссоздания в переводе следует отметить результаты исследований Л.Бархударова, К.Чуковского, В.Комисарова, И.Зиковой, Т.Атаевой, А.Вандышевой, И.Денисовой, Ю.Куликовой, Е.Хабибулиной, С.Воскресенской, Н.Есковой,

